

O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi

Алсувқий марқизнолик кафедраси
«Нотасантурши» фанидан

Kurs ishi

Mavzu: O'zbek xalq allalari

Bajardi: Urazbayeva A.
II-kurs talabasi KMF

Tekshirdi: Qurbonov X.

Toshkent – 2011.

O'zbek xalq allalari

Reja:

1. Alla haqida tushuncha...
2. Voqeaband allalar
3. Parokanda allalar
4. Allalarning kuy hususiyatlari

Allalar - beshik qo'shiqlarining keng tarqalgan an'anaviy janri hisoblanadi. Jahonda biror xalq, elat yoki millat yo'qki, ularning tilida alla kuylansa... Ruslarda "bayki" yoki "bayushki"; turkmanlarda "huvdilar"; tojiklarda "alla"; tatarlarda "alli- balli"; turklarda "ninni"; ozarbayjonlarda esa "lay-lay"; qoraqalpoqlarda "hayu-hayu"; forslarda "lolo"; fransuzlar "bekceuse" va nemislarda "wiegelied" nomlari bilan mashhur. Ayrim tahminlarga ko'ra, Alla nomi "Alloh" so'zidan kelib chiqib, yaratgan chaqaloqni o'z panohida asrashini iltijo qilishga nisbat bilan bog'liq. Alla onaning bolaga bo'lgan mehr-muxabbati, umid va orzulari, yaxshi niyat va tilaklarini anglash bilan birga ruhiy kechinmalarini ham ifodalaydi. Shu bois, alla namunalari yig'i ohanglariga yaqin bo'ladi.

Alla ijtimoiy-estetik qimmatiga ko'ra ikki vazifani bajaradi:

- 1) Bolalarni uxlatish. Ya'ni "Alla" so'zining lug'aviy ma'nosi allalash-ovutish, avaylab uxlatishdan iborat. Bunday allalab ovutish yoki uxlatish kuylash jarayonida namayon bo'ladi.
- 2) Tarbiyaviy-estetik mohiyati namayon bo'ladi: Bu allaning emotsional ta'sirchanligidan kelib chuquvchi hususiyati bo'lib, bolani kuy og'ushida hayot bilan tanishtirish, ohanglar vositasida hayot ma'nosini anglashiga qaratilganligidir.

Abu Ali Ibn Sino allaning ana shu hususiyatini ming yil ilgari payqab, shunday deganlar: "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi esa uni uxlatish uchun unga odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyasiga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan is'tedodi hosil qilinadi". Abu Ali Ibn Sinoning allaga oid mulohazalari janr genezi ya'ni kelib chiqishini belgilashda g'oyat qimmatlidir.

Allalarning Ibn Sino zamonidayoq Markazoy Osiyodagina emas, balki u kezgan O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida yashovchi

xalqlar orasida muhim ahamiyat kasb etganlagi, o'z an'anaviy hususiyatlariga ega mustaqil janr sifatida keng tarqalganini turkiy xalqlar o'rtasida "balu- balu" nomi bilan yuritilganligiga oid "Devonu lug'atit turk" M. Qoshg'ariyning ma'lumoti ham tasdiqlaydi.

Allalarning aytilish muhlati- bola uch yoshga yetgunga qadar. Allalar bolalarning ana shu yoshi bilan bog'lanishi qat'iy bo'lib, bu hususiyat faqat beshik qo'shiqlarigagina xosdir.

Allalarda onalik mehru sahovati, dardu iztiroblari, orzu- armonlari, sevgiyu hijronlari, quvonchu o'kinchlari, ayriliqu aldanishlari pog'onama- pog'ona, silsaviylikda o'sib boradi. Buni rus allashunosligi onalik tuyg'ularining uch bosqichini harakterlab, ularni bir- biridan shunday ajratib ko'rsatadiki, bu holni o'zbek allalarida ham uchratishimiz mumkin.

1) bosqich. Bunday allalarda bolani o'rab olgan muhim ifodasi bo'tib turadi, aniqrog'i, bola bilan bog'liq predmetlar: beshik, belanchak va boshqalar. Lekin bu poetik ta'rif ona shaxsiy kechinmalaridan, onalik tuyg'ularidan xoli bo'ladi. Bu turdagi rus allalarida bolani uni o'rab olgan muhit bilan tanishtirishga alohida e'tibor beriladi.

2) bosqich. Bu xildagi allalarda bola taqdiri asosiy o'rinda turadi. Biroq, endi ona bola taqdiriga befarq qaray olmaydi. Xuddi shu jarayonda alla ohangiga didaktik yo'nalish- ya'ni axloqiy- tarbiyaviy qarashlar singa boradi. O'zbek allalarida bola taqdiri bilan bog'liq didaktik yo'nalish g'oyat sezilarli ekanligini alohida ta'kidlab o'tish kerak.

3) bosqich. Bunday allalar allago'ylikning yuqori bosqichi mahsullari hisoblanadi. Chunki, bu xildagi allalarda ona qalbining to'lg'anishlari behad chuqurlashib, endi u o'z tuyg'ulari girdobiga g'arb bo'lib qoladi. Natijada - eng aziz narsasi- bolasini ham unutib qo'yadi. O'zi bilan o'zi ovora bo'lib, bolasi borligini esdan chiqaradi, dardlarini, tashvishlarini yuragidan sizib chiqqan mayin, lek bir qadar monoton ohangda kuylab yoradi, shu monoton ohangdan taskin topganday bo'ladi. O'zbek allachiligida bu xildagi allalarning xiyla ko'pligi sababini ham ana shu mantiqqa suyanib izohlash darkor. Bugungi kunda bunday proffesional allachilarni uchratish qiyinroq bo'lsa-da, har holda 2-3tagacha alla kuylovchilar topiladi. Ehtimol, ulug' Navoiy e'tirof etgan NAVOGO'lar o'sha davrning ixtisoslashgan allachilari bo'lganliklaridan bu xildagi allalarning ko'proq yaratilishi va kengroq yoyilishiga ta'sir ko'rsatgandirlar.

Allalar albatta kuylanadi. Ularni shunchaki aytish mumkin emas. Monoton ohang barcha o'zbek allalari uchun mushtarak xususiyatidir. Ammo monoton ohang onaning ijro paytidagi holati va kayfiyati bilan bog'liq.

Allalarning turlari ham mavjud. Masalan: voqeaband allalar, parokanda allalar hisoblanadi.

2. Voqeaband allalar. Bunday allalar uncha ko'p emas, ularga allachilikning eng takomillashgan namunasi sifatida qarash lozim. Bunday allalar yagona syujetga bo'ysungan, barcha bandlardagi poetik muddao bir silsilada markazlashgan hayotiy voqealarning biror lavhasi natijasida vujudga kelgan kayfiyatlar tasvirini beradi. Ularda kompozitsiya puxta bo'ladi: ekspozitsiya, tugun, kul'minatsiya, yechim va hokazo.

Masalan: "Bulbul sayrar yozina ..." allasida ana shunday ekspozitsiya, bulbulning yozda sayrash va undagi maftunkorligikning har qanday minnatdorlikka sazavorligi bo'lsa, tugun - o'sha bulbul qiyofasida ko'rinuvchi o'g'ilning kelajakda kim bo'lishidir.

Ko'tarinki nuqta ya'ni kulminatsiya esa - shu bulbul - o'g'il taqdirning o'limga ro'para kelmasligi niyatidan tug'ilgan tuyg'ular qarama-qarshiligida ko'rinadi.

Voqeabandlik hususiyatini yumaristik allalarda, shuningdek, yig'i-allalarda ham ko'rish mumkin. Lekin, o'zbek allalari orasida voqeaband allalarning ikkinchi tarafi ko'rinishi ham uchrab turadi. Bunday allalarning kompozitsiyasi dialogda ona nutqi eshitilib turadi.

Ikkinchi tomoni ona allada qo'yayotgan talablarni ijro etmoqqa kirishishi lozim bo'ladi. Bunday vaziyatda ona allasini tinglayotgan ikki kishi bo'ladi: 1) bola, alla uni uxlatish uchun;

2) alladagi topshiriq qaratilgan kimsa.

Bunday allalarda voqeabandlik alla aytayotgan onaning vaziyatini to'g'ri anglab olish, natijada onaning nimadandir noroziligi tufayli yuzaga kelishidir. Shu sababli bu xildagi allalarni AN'ANAVIY allalar jumlasiga qo'shib bo'lmaydi. chunki ularda ifodalangan muddao faqat o'sha onaning alla aytayotgan vaziyatdagi holati va kayfiyati mantiqidan kelib chiqadi. Bunday xolat boshqa onada uchramasligi mimkin. Bu badihago'ylikning o'ziga xosligi shundaki, u har bir onaning faqat o'z turmush sharouti tasabburidan va ona qalbining o'sha vaziyatdagi oniy kechinmalaridan tug'iladi. Har bir onaning o'z qalbi mulki hisoblanadi, unga xos kechinmalar qayta takrorlanmasdir.

**Shu sabab, bunday alla osha paytdagina aytilishi mumkin.
Bunday xolat yumush bilan band onaning uxlayotgan farzandi bilan
suhbati shunday kechishi mumkin.**

Masalan:

Past-pastgina tepadan
Toydim tushdim-o alla.
Qo'linga qaychi olib-o,
Senga qo'zichog'im-o
Chopon bichdim-o, alla.

3. Parokanda allalar. O'zbek onalar ijodida ko'p uchraydigan allalardan biri hisoblanadi. Eng muhim hususiyati - yagona syujet asosida bo'lmaganligidir. Har bir parokanda band o'zicha mustaqil tugal bir mazmunga egadir. Ammo bunday mustaqillik faqat tashqi belgi, chunki mazmun mantiqi, bolaga qaratilganligi bandlarni yagona bir ipga tizadi, buni vazn, qofiya, radif va hatto, naqorat kabi badiiy- tasviriy komponentlar kuchaytiradi. allada parokandalikning yuzaga kelishida, uni kuylayotdan ona kayfiyatidagi betakrorlik, o'z sarguzashtlari, tashvishlari, omadsizliklari, o'kinchlari, armonlari asosiy rol o'ynaydi. Ona bola atrofida aylanadi-yu lekin qo'shiqda onalik hislari va istaklarini singdirayotganini o'zi sezmay qoladi. Natijada onaning o'y-mulohazalari ikki guruhga bo'linadi: ham bolani, ham o'zini o'ylaydigan bo'ladi. Shunday vaziyatda ona o'y- muloxazalarida parishonlik barqarorlasha boradi. Lekin, onaning o'zi haqidagi o'y-mulohazalari bolasi atrofidagi o'y- mulohazalar zaminida kechadi. Bu esa, alladagi sirtqi parokandalikka mantiqiy bir butunlikni ta'minlab turadi.

Masalan:

Allo-allo, odingnan,
Alvonjiying bodinan.
Onajoning o'rgulsin,
Kokilingni torinan
Alla-yo heya...

Allalarning kuy va ijro hususiyati

An'aniviy Alla hususiyatlaridan o'zbek bastakorlaridan T. Jalilov, Y. Rajabiy, F. Sodiqov va kompozitorlaridan A. Muhamedov, I. Akbarov. S. Yudakov ijodiy foydalanishgan.

Allalar albatta kuylanadi. Ularni shunchaki aytish mumkin emas. Monoton ohang barcha o'zbek allalari uchun mushtarak xususiyatidir. Ammo monoton ohang onaning ijro paytidagi holati

va kayfiyati bilan bog'liq. Odatda oddiy kuylar bilan, ba'zida rechitativ tarzda, beshik yoki belanchakni tebratish sur'atiga mos ravishda ijro etiladi.

O'zbekistonning ba'zi hududlarida Alla nomi bilan aytiladigan qo'shiq. Masalan: buxoro viloyati Olot va Qorako'l tumanlari hamda Xorazmda dafn marosimi jarayonida ayollar (yoki maxsus chaqirilgan allachi- go'yanda, xalfa) tomonidan badiha uslubida aytiladigan qo'shiq hisoblanadi.

Allalarda ritm ham katta rol o'ynaydi. Ritm har doim bir xil emas, alla yakka ovozda ijro etilganligi uchun, alla aytayotga inson, chorak notasi o'rniga yarimtalik notasini olib, uni bir nechta taktga cho'zishi mumkin. Shuning uchun allalarda ritm bir xil bo'lmaydi, hatto uni aniqlash ham qiyinroq. Lekin Bastakorlar tahminan 4/8 ritmga xos deb yuritishgan. Ammo professional allalarda ritmikani sezamiz. Ijro hususiyatlari bayramona marosim kayfiyatiga mos: tantanavor doira usuli jo'rligida kuylanishi mumkin. Masalan: L. Sarimsoqiva ijrosida ko'rsak bo'ladi.

Ba'zi sozandalar allani cholg'u asboblarda ham chalishgan. Masalan: Sato cholg'u sozida; G'ijjakda esa A. Ismoilov ijrosida.

Hozirgi kunda hatto, allani qayta ishlab, ya'ni oranjirovka qilib kuylashmoqda. Masalan: O. Nursaidova. (Alla bolam); "Setora" guruhi "Bolajonim".

Albatta Allalarni bastakorlar notaga solishgan. Alla kuylari qisqa hajmdagi tovush qatorlaraga, ya'ni tertsiya, kvarta, kvinta tovushiga asoslanib keladi. Takroriylik, takrorlanuvchilik bir tovushdan ikkinchi tovushga qisqa muddatga o'tib, qaytish hollari ko'p uchrab turadi.

Asosan, allalarda notalardan- yarimtaliklar, sakkiztaliklar va o'n oltitaliklar uchraydi. Chorak notasi kamdan kam.

Qisqacha TAHLIL...

Kuy jihatdan ko'pgina allalarga xos bo'lgan umumiylikni sezsa bo'ladi:

- 1) Bosqichma- bosqich, pog'onama- pog'ona harakatlanadi;
- 2) Sakrashlarni kamdan kam kuzatishimiz mumkin;
- 3) Kuylarning yopiq tarzdagi turlari ko'proq uchrashi.
- 4) Yuqoriga harakat qiluvchi tovushlarning mavjudligi;
- 6) Kichik tertsiya intervali orqali, tayanch vazifasini bajaruvchi kuylar borligi.

Asosan allalarda lokriya ladi ishlatilgan.

Misol tariqasida boysun allasi - notalashtirilgan varianti...

Qo'llanilgan adabiyotlar:

- 1. Alaviya M. " O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" Toshkent-1974**
- 2. Abu Ali Ibn Sino. Tip qonunlari I-tom. Toshkent-1959**
- 3. M. Qoshg'ariy. "Devonu lug'atit turk". III tom - Toshkent**
- 4. O. Safarov "Alla-yo alla" Toshkent -1999**
- 5. E.Pomanovskaya "Zapisi muzikal'nogo folklor" Tashkent-1957**
- 6. Kapitsa D. "Detskiy folklor" -1928**